

2-TOM, 5-SON

ADABIY TA'LIMDA INNOVATSION VA ZAMONAVIY  
TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING DOLZARB MASALALARI

Kurbanova Feruza A'zamovna

QDPI. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya :** Maqolada Oliy ta'limga talabalarni mustaqil-ijodiy fikrlashga, badiiy asarni tahlil qilishga, mushohada yuritishga, bahs-munozarada o'z shaxsiy fikr-mulohazalarini himoya qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan ilg'or pedagogik texnologiyalardan Said Ahmad hayoti va adabiy faoliyatini o'qitishda foydalanish yo'llari yuzasidan amaliy tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'z:** adabiy jarayon, badiiy mahorat, munozara, munosabat, tahlil, talqin, izlanuvchanlik, mustaqil fikrlash, ibrat.

**Аннотация:** В статье жизнь и литературное творчество Саида Ахмеда представляет собой одну из передовых педагогических технологий, направленных на формирование навыков самостоятельного и творческого мышления, анализа и наблюдения произведений искусства, а также отстаивания собственного мнения в дискуссии, даются практические рекомендации. способы использования.

**Ключевые слова:** литературный процесс, художественное мастерство, дискуссия, отношение, анализ, интерпретация, любознательность, самостоятельное мышление, примерность.

**Annotation:** In the article, the life and literary work of Said Ahmed represents one of the advanced pedagogical technologies aimed at developing the skills of independent and creative thinking, analysis and observation of works of art, as well as defending one's own opinion in a discussion, and practical recommendations are given. methods of use.

**Key words:** literary process, artistic skill, discussion, attitude, analysis, interpretation, curiosity, independent thinking, exemplary behavior.

Bugungi kunda ta'limga - mamlakat taraqqiyotining eng muhim poydevori hisoblanadi. Ta'limgni rivojlantirish avvalo pedagog-o'qituvchilar zimmasidadir. Malakali kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biri – bu ta'limga sifati va samaradorligini oshirishdir. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida ta'limga xizmatlari sifatini oshirish hamda jamiyatni rivojlantirish bo'yicha muhim vazifalarni belgilab berdi. Xususan, Prezidentimiz mamlakat salohiyati bilim va tafakkurda ekanligiga urg'u berib, "Ta'limga sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'li" ekanligini ta'kidlab o'tdi.



## 2-TOM, 5-SON


Ta'lrim sifati va samaradorligini oshirishda o'qitishning zamonaviy usullari, shakl hamda vositalari, o'yin texnologiyalari, muammoli o'qitish, xususan, ta'limning zamonaviy metodlari muhim o'rinn egallaydi. Mamlakatimizdagi oliy ta'lrim muassasalarida talabalarning zamonaviy ta'lrim olishlari uchun katta imkoniyatlar yaratilgan.

*Quyida Pedagogika Oliy ta'lrim muassasalarida O'zbek adabiyoti fanidan Said Ahmad asarlarida davr va shaxs talqini mavzusini zamonaviy ta'lrim asosda o'qitishning samaralari usullari haqida so'z yuritamiz.* Ta'lrim jarayonida talaba o'zi mustaqil ravishda adabiyotlar, darsliklar, gazeta va jurnallar, radio va televideniye, elektron darsliklar, o'quv qo'llanmalari, internet materiallari va o'quv-uslubiy majmualardan foydalanishlari nazarda tutilgan .

### MAVZU: SAID AHMAD ASARLARIDA DAVR VA SHAXS TALQINI. ( 1920-2007 )

#### REJA :

1. Said Ahmad adabiy merosi va uning o'rganilish tarixi.
2. Said Ahmad romanlarida realistik hayot tasviri.
3. Xulosa. "Shaxsiyati - ibrat, ijodi- saboq" .



**O'quv mashg'ulotining maqsadi:** O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad hayoti va adabiy merosini to'liq o'rganish. Yozuvchi uslubi va badiiy mahorat qirralarini asarlari tahlilida ko'rib chiqish.

**Kutilayotgan natija:** Sadoqat,mardlik,fidoiylik , adolatlilik kabi chin insoniy fazilatlar yozuvchi hayoti va faoliyatining asosi mezoni bo'lganligini aniqlaydilar.

**O'qitish usullari:** suhbat,munozara,savol-javob.

#### 1-Reja. Said Ahmad adabiy merosi va uning o'rganilish tarixi.

**Maqsad:** Yozuvchi ijodini o'rgangan adabiyotshunos olimlarning monografiya, risola, ilmiy maqolalarini o'qib chiqish. Said Ahmad adabiy merosi bilan yaqindan tanishish.

**Kutilayotgan natija:** Yozuvchi adabiy merosi bilan yaqindan tanishadilar va xolis munosabat bildiradilar.

#### 1-Topshiriq: „Bizda savol, javobi kimda” didaktik o'yini.

Topshiriqni bajarish shakli: jamoaviy.

Topshiriq sharti : Tarqatma material orqali talabalarga savollar va javoblar tarqatiladi. Savollar varaqasi berilgan talabalar savollarni o'qiydi. Javoblar varaqasi berilgan talabalar diqqat bilan tinglab , tezlik bilan javoblarini beradilar.



**2-TOM, 5-SON**

**2-Topshiriq :** Yozuvchi hayoti va adabiy faoliyatiga oid bilmlarni mustahkamlash. Yangi ma'lumotlar almashish. Yozuvchining ijodiy merosini yoritib beruvchi jadvalni to'ldiring. Topshiriqni bajarish shakli: kichik guruhlarda ishlash:

**Namuna:**

T/r	Asar nomi	Nashr yili	Adabiy tur va janri	G'oyasi
1.	“Kuyov”	1986	Komediya	Keksa yoshli insonlarning hayoti, yaqinlari ning mehr va oqibatiga muhtojligi,yolg'izlik azoblarini ko'rsatib berish orqali inson qadrini ulug'lash, keksaygan ota-onalarning beminnat xizmatlarini qilish, tiriklik chog'larida ko'ngil larini olish,mehr-muruvvat ko'rsatish zarurligi kabi axloqiy-ma'naiy muammolar o'rtaga tashlanadi.

**3-Topshiriq: “MULOHAZA YURIT VA MUNOSABAT BILDIR”**

Sizga adib hayoti va ijodi bo'yicha yaratilgan ilmiy risola hamda maqolalar havola qilinmoqda. Unda Said Ahmadning betakror uslubi va obraz yaratish mahorati tahlilga tortilgan. Mazkur maqolalarni o'rganib chiqing va o'z munosabatingizni bildiring.

N	Maqola nomi	Muallifi	Yili	Manba
1.	“Yetuklik”	Normatov U.	1982	Toshkent.G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
2	“Prozaning shoiri”	G'ofurov I.	1984	Toshkent.G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
3	“Hayotiylik-bezavol mezon”	Nazarov B.	1985	Toshkent. “Yosh gvardiya”nashriyoti.



**2-TOM, 5-SON**

4	“Yangilanish sog’inchi	Karimov B.	2004	Toshkent.Adabiyot jamg’armasi nashriyoti.
---	------------------------	------------	------	---

**2-Reja :** Said Ahmad romanlarida realistik hayot tasviri.

**Qo’llaniladigan texnologiya : ”T.T.T” (Tahlil - Talqin - Taqdim.)**

**Kutilayotgan natija:** “Ufq” trilogiyasida va “Jimjitlik” romanida davr, muhit va inson fojiasini yoritishda yozuvchi badiiy mahoratini romanlarni tarkibiy qismlarga ajratib, tahlil qiib o’rganadilar.Yozuvchining realistik uslubi bilan tanishadilar.

**Bajarish shakli :** kichik guruhlarda ishslash.

1-guruh – “Qirq besh kun” romani.

2-guruh – “Hijron kunlari”romani

3-guruh – “Ufq bo’sag’asida”

4-guruh – “Jimjitlik” romani matni ustida ishlaydilar.

Kichik guruh a’zolari o’zlariga berilgan roman matni bilan to’liq tanishib chiqadilar.

Romanning o’ziga xos jihatlari,unda aks ettirilgan bosh g’oyani topishga harakat qiladilar. Har bir roman mustaqil syujet yo’nalishiga ega ekanligini tahlil jarayonida aniqlaydilar. Jadvalda korsatilgan vazifalarni bajaradilar.

1- vazifa	2- vazifa	3-vazifa	4-vazifa	5-vazifa	6-vazifa
Asarning mavzusi va g’oyasini aniqlang	Syujet komponentlari: Ekspozit Siya,tugun, kulminat sion nuqta, voqealar rivoji, yechimni toping.	Obrazlar galeriyasini tuzib chiqing. Asarning bosh qahramoni kim?	Qahramon nutqini individual lashtirish uchun ishlatilgan so’zlarni ajratib ko’rsating	Davr ruhini aks ettiruvchi so’zlarni topib izohlang.	Yozuvchi badiiy uslubi va obraz yaratish mahoratiga baho bering.



**2-TOM, 5-SON**

**3- Reja: Xulosa . “Shaxsiyati - ibrat, ijodi- saboq”**

**Topshiriq:** "Shaxsiyati - ibrat, ijodi-saboq" mavzusida esse yozish.

**Topshiriqni bajarish shakli:** individual. Talabalar dars jarayonida olgan bilimlariga tayangan xolda ijodiy ish yozadilar va o'qib eshittiradilar.

**Maqsad:** Butun hayoti va faoliyatini adabiyot va ilm taraqqiyotiga bag'ishlagan, bu soha rivoji uchun o'z kuch-quvvatini ayamagan,natijada misilsiz mashaqqatlarni boshidan o'tkazib, dard va alam to'la kunlarni bardosh bilan yengib o'tgan buyuk siymo - Said Ahmad siymosi bilan yaqindan tanishish orqali yozuvchining shaxsiyatidan ibrat, ijodidan o'rnak olish.

**Kutilayotgan natija:** Ijodkor yashagan tarixiy sharoit va davr ijtimoiy-siyosiy jarayonlari to'g'risida tasavvurga ega bo'ladilar.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Рахимов Б. Мавлянов А. Ўқув машғулотларини замонавий ташкил этиш ва ўтказиш технологиялари. Тошкент. "Фан ва технология" нашриёти, 2016.
2. Qurbanova Feruza Azamovna. Adabiy ta`limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning amaliy ahamiyati. Oriental Art and Culture 2020 368-372
3. Azamovna Kurbanova Feruza. The Practical Value of Using Innovative Pedagogical Technologies in Literary Education Eastern Art and Culture, 2020 .Том 3.368-372.
4. F. A. Kurbanova . TAHIR MALIK'S "GOODBYE, CHILDHOOD!" THE ISSUE OF REBELLION AGAINST MENTAL ILLNESS IN THE STORY. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. 2022/11/29. 362-365
5. Feruza QURBONOVA. O'QUV MASHG'ULOTLARINI ZAMONAVIY TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TEXNOLOGIYALARI. Toshkent. Til va adabiyot.uz .Imiy-metodik elektron jurnal. 2024yil 2-son .24-29-b.

